

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAN'AT FAKULTETI

«**Himoyaga ruxsat etilsin**»

Fakultet dekani p.f.n.

_____K.M.Gulyamov

« ____ » _____ 2014 yil

5140900 – Kasb ta'limi (5211200 – Amaliy san'at)
ta'lim yo'nalishi kunduzgi bo'lim 4 – kurs talabasi

Kurbanova Yulduzxon Odiljon qizining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA
TURLI RANGLARDAN FOYDALANISH**

Talaba: _____ Kurbanova Y.O.

Ilmiy rahbar: «Amaliy san'at va uni
o'qitish metodikasi» kafedrasida
dotsent v/b. _____ N.A.Mansurov

Taqrizchi: _____ p.f.n. K.M.Gulyamov

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Amaliy san'at va uni o'qitish metodikasi»
kafedrasida mudiri, prof. _____S.S.Bulatov

« ____ » _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I BOB. AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA RANGLARNING O'RNI

1.1. Amaliy san'atda ranglardan foydalanishning ahamiyati.	6
1.2. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda rang va uning turlari.	14

II BOB. AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA RANGSHUNOSLIK TEXNOLOGIYASI

2.1. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda ranglarning ramziy ifodasi.	23
2.2. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda ranglash texnologiyasi.	33

III BOB. AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA TURLI RANGLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI.

3.1. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.	40
3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili.	41

XULOSA	54
---------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	55
--	----

ILOVALAR

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O‘zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning sog‘lomlashuvi jamiyat a‘zolarining ijtimoiy tafakkurida ijobiy o‘zgarishlarni sodir etdi. Bu xol esa ma‘naviy qadriyatlarga e‘tiborni kuchaytirdi. «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilingandan keyin o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta‘limini isloh qilish dolzarb masala bo‘lib qoldi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Davlat qonunida ta‘limning ravnaqi uning insonparvarligi, ta‘lim-tarbiya tizimining uzluksizligi, izchilligi, davlat ta‘lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi, ta‘limda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustivorligi, davlat ta‘lim standartlari doirasida hammaning ta‘lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi bilan belgilanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta‘limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ta‘limning ijtimoiylashuvi-ta‘lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma‘naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov "O‘tgan davr mobaynida eski tuzumdan og‘ir meros bo‘lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko‘hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimnzning ma‘naviy yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelganini va bugun ham e‘tiborimiz markazida turganini ta‘kidlash lozim"¹ ekanini ko‘p marta uqtiradi. Mazkur milliy tafakkurdagi ijobiy ustivor ta‘sirlar zamonaviy san‘atimizning ijobiy izlanishlar doirasini kengaytiradi va xususan badiiy ta‘lim sohasining rivojlanishini yanada jadallashtiradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xalq san‘ati rivoji yangicha mazmun kasb etdi. Milliy merosimizni, an‘anaviy milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, hunarmandlarga g‘amho‘rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy bezak san‘ati rivojida O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti farmonlari hamda hukumat qarorlarining mohiyati kattadir. 1997 yil 24 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «Xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari to‘g‘risida» gi farmoni joriy etildi.

Bu farmonga muvofiq xalq san’atini yoshlarga o‘rgatish eng muhim vazifalardan deb hisoblanadi. Chunonchi, xalq amaliy san’ati eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasidir. U asrlar mobaynida shu tarzda xalq ijodi sifatida shakillanib, taraqqiy etgan. Shuni alohida ta’kidlash joyizki, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakillantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ma’lumki, har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o‘rgatish va o‘zlashtirish vazifasi turadi. Zero, ilm bobidagi izlanish insonni ma’naviy, ahloqiy – estetik kamolot sari etaklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 fevraldagi 77 sonli qaroridan so‘ng respublikamizning barcha viloyatlarida tasviriy, amaliy san’at va xalq hunarmandchiligiga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari barpo etildi.

Bu o‘z o‘rnida o‘zbek xalq amaliy bezak san’atiga jiddiy e’tibor berishni, ularni har tomonlama o‘rganish, rivojlantirish, yosh avlodlarga san’atning sir-asrorlarini o‘zlashtirish, ularning estetik didini o‘stirish hamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimiz, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Kasb-hunar kollejlarda amaliy san’at buyumlariga badiiy ishlov berishda ranglash texnologiyasidan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti: Kasb-hunar kollejlarda amaliy san’at mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Kasb-hunar kollejlarda amaliy san’at mashg‘ulotlari mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- kasb-hunar kollejlarda o‘quvchilarning amaliy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash;
- o‘quvchilarda amaliy san’atga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- kasb-hunar kollejlarning amaliy san’at darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish;
- kasb-hunar kollejlarning amaliy san’at darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yuzasidan tajriba-sinov ishlari o‘tkazish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar va xalq ta’limi vazirliklarining qarorlari, ko‘rsatmalari, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining o‘zbek xalq amaliy san’atini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalari, madaniyat va san’atga oid hukumatning qarorlari va boshqa me’yoriy xujjatlar, o‘zbek xalq amaliy san’atining milliy an’analari, buyuk olim va pedagoglar, sharq mutafakkirlarining badiiy ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy qiymati:

- kasb-hunar kollejlarda ganch o‘ymakorligi buyumlariga badiiy ilov berishda ranglash texnologiyasidan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish va amalda bajarish;
- rang turlari bilan ishlashni o‘rgatish va bo‘yoq hususiyatlari hamda, kimyoviy tarkibi bilan tanishtirish;
- pardoz turlarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashning nazariy asoslari, usullari va shakllarini yoritib berish bilan belgilanadi;

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:

kasb-hunar kolleji o‘quvchilari amaliy san’at darslarida ganch o‘ymakorligi buyumlariga badiiy ishlov berishda ranglash texnologiyasidan foydalanish yoritib beriladi va undan o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

I BOB. AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA RANGLARNING O'RNI

1.1. Amaliy san'atda ranglardan foydalanishning ahamiyati.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Mamlakatimizning er usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzeydir. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining eng rivojlangan turlaridan: ganchkorlik, naqqoshlik, zargarlik, kashtachilik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kulolchilik, pichoqchilik, kigiz bosish, savatchilik, bo'yrachilik kabilarni o'rgatish, o'rganish texnologiyasi, ustalarning xaqiqiy nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sho'ro tuzumi davrida asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga kutarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rki tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati. Me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimiy toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan

tarix, adabiyot. San'at, siyosat. Axloq, falsafa, tibbiyot. Matematika. Mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

“Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasi. diniy, axloqiy, ilmiy adabiy qarashlarni ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan. “Avesto” deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorliklarning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha etib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz”.¹

Bugungi kunda mustaqil mamalakatimizda xalkimizning asrlar davomida yaratgan ijodiy mehnati natijasi bo'lmish amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek asrash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashxur olim, shoir va musavvirlarning betakror madaniyat durdonalari, xalq ustalari yaratgan nodir asarlar ruhida yoshlarni tarbiyalash, ustachilik va hunarmandchilik sirlarini ularga me'ros qoldirishga chaqirganlar.

Pahlavon Mahmud maqbarasi bezaklaridagi ramziylik.

Xiva shahridagi tarixiy arxitektura yodgorliklari ichida eng hashamatli va ⁱⁱchiroyliligi bilan ajralib turadigan Pahlavon Mahmud maqbarasidir. Pahlavon Mahmud maqbarasi Xiva shahrining adl o'rtasiga joylashgan. U gumbazining

banlandligi 25 m sababli shahardan 5-6 chaqirim naridan qo‘rinib turadi. Maqbaraning hozirgi qo‘rinishidagi gumbazi Muhammad Rahimxon I davrida qurilib, uning o‘g‘li Olloqulixon davrida chiroyli koshinlar bilan bezatilgan. Shuning uchun ham ko‘pchilik olimlar bu maqbarani Xiva xonlarining Qo‘ng‘irot sulolasi xilxonasi deb atashadi.

Maqbaradagi qoplama bezaklar mukammalligi bilangina emas, balki naqshlarning mohirona ishlanganligi va xona ichida bekami-ko‘stligi bilan ham bebahodir. Koshin karvichlar kvadrat shaklida 27x27 sm bo‘lib, birisidagi naqsh ikkinchisida xuddi shunday joylashgan usulda takrorlanmaydi. Ulardagi naqsh chiziqlari bir-biri bilan aniq bog‘lanib ketadi va umumiy bezak lavhalarni tashkil qiladi.

Koshinlardagi gullar aksari oq,ko‘k va zangori bo‘lib, bu ranglarning tanlanishi ham bejiz emas. Chunki qadimdan oq rang tozalik, yorug‘lik, baxt va omad ramzi. Ko‘k rang moviy osmon, yomon kundan asrash, zangori-oliy e‘tiqod ramzini bildirgan. Naqshlarda ham olam-olam ma‘nolar yashiringan. Masalan, katta gumbazli xonaga kirishdagi koshinlarning pastgi qatorida kema tasviri tushirilgan. Xalq orasida mana shu Pahlavon Mahmud maqbarasi Xiva shahrining langari deyiladi. Davlat mukofoti laureati, O‘zbekiston xalq rassomi, eski muzey ilmiy xodimi Abdulla Boltaevning “Xiva va Xorazm tarixiga doir materiallar” deb nomlangan daftarlari mavjud. Shulardan 37-sonli daftarda yuqoridagi afsona va langar haqida ham yozib qoldirgan.

Naqshlarning katta ko‘pchiligi har xil o‘lchamdagi aylanalar ichiga yasalgan, yoki naqshlarning o‘zi aylana-aylana bo‘lib ketgan. Chunki aylanaga ko‘zi tushgan yovuz niyatli kishi niyatidan qaytadi, deb hisoblangan.

Koshinlarning yana birida qush surati tasvirlangan, bu bulbul bo‘lib, sadoqat ramzini, ya‘ni Olloqulixonning otasiga va Pahlavon Mahmudga sadoqatini bildiradi.


Abdulla Boltaevning yozishicha Olloqulixon o‘ziga Xivadagi eng hashamatli saroy – Toshhovlini qurdirib, unga koshinlar bilan bezak berishdan avval, otasining yotgan joyi Pahlavon Mahmud maqbarasini koshinlar bilan

bezattirgan. Olloqulixonning otasiga hurmati shu darajada bo'lganki, o'ziga tayyorlatgan qabri otasi yotgan joyning oyog'i uchida va pastda qurilishini buyurgan.

Umuman, bu an'ana avvaldan kelayotganini sezish qiyin emas. Pahlavon Mahmud oyog'i uchida Abulg'ozzi va Anushaxonlar (VII-asr qabrtoshlari), ulardan keyin esa Muhammad Rahimxon I qabri joylashgan. Pahlavon Mahmud qabrining uzunasi Sharqdan G'arbga tomon qilib er ustida qurilgan. Chunki Xorazmda barcha qabrlar shunday quriladi. Buning sababi bor. Qabr er ustidaligi, er osti suvining juda yaqinligidan. Sharq g'arbligining ma'nosi, o'likning boshini g'arb tomonga qo'yib, yuzini janubga, ya'ni Makkaga qaratish uchundir. Boshini g'arbga qo'yish quyosh botganini, kishi hayoti tugaganini bildiradi. Xorazmda qadimdan bir odat bor, bolani uxlashi uchun yotqizganda boshini faqat janub yoki sharq tomonga qo'yish tavsiya qilinadi. Kun botarga va shimolga bosh qo'yish butunlay ta'qiqlanadi. Kunbotar tomonga faqat o'lik bosh qo'yadi, Qibla-Janubga esa oyoq uzatish mumkin emas, u tomonda Makka bor deyiladi.

Diniy deb talqin qilingan bu aqida aslida ilmiy bo'lib, er sharining aylanishi va uning odam tanasiga ta'siri haqidadir. Agar kishi sharq tomonga bosh qo'yib yotsa, tanasida qon aylanishi engillashadi, chunki er aylanishi unga yordam beradi. SHuning natijasida yurak dam oladi. Janubga bosh qo'yish esa er magnit maydoniga moslashishni bildiradi. Qadimda fan bilan din birga qo'shib olib borilgani sababli, bu bilimlar tezlikda ommaga og'zaki holda etib borgan. Og'zaki bo'lgani uchun ham ko'p ilmiy asoslangan narsalar bizgacha etib kelmagan.

Xiva shahrining birgina Pahlavon Mahmud maqbarasidagi o'yma naqshli eshiklarning 5 tasida, koshinlarning 10 ta joyida, 6 ta marmar toshda, 3 ta metall buyumda arab, fors va turkiy tillardagi yozuvlar bo'lib, ular tariximizni o'rganishda muhim manbalardir.



“Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxasis olimlar yordamiga tayanib, matematika, geometriya, me’morlik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san’at, xattotlik kabi sohalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Amir Temur va temuriylar davrida xalq hunarmandchiligi, qolaversa, madaniyati yuksak darajada rivoj topdi. Temurning amri bilan turli mamlakatlardan ustalar, me’morlar olib kelinib, betakror binolar qurildi va bog‘u rog‘lar barpo etildi. Ushbu betakror binolarni naqshu nigoralarda turli ramziy naqshlar ya’ni qushlar, hayvonlar, o‘simliklar, buyumlar, inson qiyofalari ranglar orqali aks ettirilgan. Ularda bir dunyo falsafiy fikrlar bayon etilgan”.¹

M.I.Rempel Markaziy Osiyodagi tarixiy taraqqiyotning, me'morchilik obidalarini, naqshlarning kompozitsiyalarini, uslublarini batafsil o'rganib, yirik

¹ Temur tuzuklari . A.Sug‘uniy va X.Karamatov tarjimasini. B.Ahmedov tahriri –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. -344 b

tarixiy asarlar yozdi. Uning “Arxitekturniy arnament Uzbekistana” nomli asarida O‘zbekiston hududidagi me‘moriy obidalarni bezatishda (ular ichida ko‘plab ganch o‘ymakorligi namunalari bor) qo‘llanilgan naqshinkor bezaklarning kompozitsion tuzilishlari, mazmuni chuqur tahlil etilgan. Uning andozalari bugungi kunda ham ganch o‘ymakorligi namunalari yaratish bo‘yicha andoza vazifasini o‘tamoqda.

Xalq amaliy bezak san'atining tarixi, yo‘nalishlari, sohalarni o‘rganishda pedagog olim S.S.Bulatovning ilmiy faoliyati ibratlidir. XX asrning oxirgi o‘n yilligida olimning xalq amaliy bezak san'atining turli sohalarga bag‘ishlangan yirik asarlari nashr etildi. Yoshlarni halol mehnat qilishga, ularni turli kasb-xunar sirlarini mukammal egallashga o‘rgatib borilishi xalqimiz taraqqiyoti tarixida, xar xil davrlarda mutafakkir olimlar, nazariyotchi va amaliyotchilar tomonidan tadqiq etilib, fikr va muloxazalarni o‘z asarlarida bayon etganlar.

Xozirgi davrda ijod etgan va ijod etib kelayotgan olimlarimizdan professor S.S.Bulatov o‘zining “O‘zbek xalq amaliy bezak san'ati” nomli o‘quv metodik qo‘llanmasida o‘zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlari, ular haqidagi ilmiy va tarixiy ma'lumotlar, amaliy ish usullari bayon etilib, bu san'at turlarini o‘rganish va o‘rgatishga doir nazariy-metodik yo‘l-yo‘riqlar berilgan.

Qadimda ota-bobolarimiz quyosh tushgan uyda yashagan odamning tani sog‘, umri esa uzun bo‘ladi, deganlar. Chunki Quyosh tushgan uyda mikroba kam bo‘ladi. Biologiya fanidan ma‘lumki, o‘simliklarda xlorofill moddasi kamaysa, ular nimjon, rangsiz bo‘lib o‘sadi va xattoki meva, bermaydi. Odam ham yorug‘lik tushmagan joyda ishlasa yoki yashasa, nimjon, rangpar, kuchsiz bo‘ladi.

Sharqona usuldagi bozorlarimizdan birini olaylik. Bozor avvalgi holatidan tubdan o‘zgartirib juda chiroyli qurildi. Bozor rastalarining ustki qismi yashil shifer bilan yopildi, tashqarilan, ichkaridan juda chiroyli ko‘rinadi. Lekin rang tanlashda me‘morlar katta xatoga yo‘l quyganlar. Bozorga borsangiz, sotuvchilar qo‘shimcha, salafanlar bilan ustlarini yopib olganlarini ko‘rasiz. Meva, go‘sh va boshqalarning haqiqiy ranglari ko‘rinmaydi, yashil rang nuri mahsulotning qizil rangiga qo‘shilib jigarrang ko‘rimsiz tus oladi. Bu holatni ko‘rgan xaridor hayron, sotuvchi ham hijolatda. Xullas, bu hol olamlarning ruhiga salbiy ta‘sir etmoqda.

Har bir binoning ichki va tashqi qismi o'z mazmunidan kelib chiqib turlicha bo'yaladi. Masalan, maktab sinflari o'ziga xos talablar asosida bo'yaladi. Bolalar rangni kattalarga nisbatan boshqacharoq sezadi. Buning ustiga turli yoshdagi bolalar turli rangni yaxshi ko'radi. Belarus olimlari 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan uch mingdan ortiq boladan so'rab, xulosa chiqarganlar. Binobarin, bolalar iliq ranglarda o'zlarini yaxshi his etganlar. O'smirlarning 7 - foizi esa moviy rangni afzal bilarkan. Shu sababli quyi sinflarni sariq, pushti rangga, o'smirlar o'qiydigan xonalarni sovuqroq - moviy rangga bo'yash tavsiya etiladi.

O'quvchi yoshlarning bilimi, tayyorlanayotgan kadrlarning sifatini oshirishda rang juda katta ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misollarda ko'rdik.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi masalalarni hal qilish maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- Ta'lim tizimida ranglardan foydalanish modelini tuzish va ilmiy tadqiqot ishlari olib borish. Rangshunoslikka oid adabiyotlarni chop etish;

- Rangshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tashkil etish;

- Respublikada rang instituti yoki ilmiy laboratoriyasi tashkil etish;

- Rangshunoslikka oid mukammal ilmiy asoslangan dasturlar tuzish;

- Texnika, tibbiyot, fizika, rassomchilik, amaliy san'at, teatr, kino, qishloq xo'jaligi, maorif va boshqa sohalarda rangning o'rnini, vazifasiga oid fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- Rangshunoslikka oid ko'rgazmali qurollar, slayd, videofilm, plakatlar ishlab chiqish;

- Rangshunoslikka oid qiziqarli, rangli test savollari tuzish;

- Rangshunoslikka oid atamalar lug'atini tuzish;

- Jahondagi rivojlangan mamlakatlarga, rangshunoslik ilmiy tadqiqot institutlariga olimlarimizni ilmiy safarga yuborish.

- Zamonaviy kompyuterlar yordamida rangshunoslikka oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borish.

- O'quvchi, talabalarga yoshligidan ranglarning mohiyatini o'rgatish.

- Hamma sohalarda rangning o'rnini haqida ilmiy konferensiyalar o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, rangshunoslik fanini yanada taraqqiy ettirish mamlakatning yanada rivojlanishida juda katta ijobiy ahamiyatga ega. Ranglarda bir dunyo ilm sirlari, ma'naviyat xazinalari yashirinib yotibdi. Bu sirlarni o'rganish, rangshunoslik fanini yanada rivojlantirish, taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda rang va uning turlari.

Ota - bobolarimiz ranglarning xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni o'rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo'lganlari uchun zangori-lojuvard va yashil ranglarni, ayniqsa, ko'p ishlatganlar. Binolarning koshin va parchin sirlari oftob nurida tovlanishini hamda atrofdagi ranglar bilan bog'lanishini hisobga olib, munosib bo'yoqlar tanlaganlar. Parchin va koshinlarda asosan lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatilgan. Ular Osmon, Er, terilgan pishiq g'isht rangi bilan juda yaxshi bog'langan.

Har bir rangning o'z mazmuni va asoslangan manbai bo'ladi. Ko'm-ko'k, ya'ni havo rang - ota bo'yoq koinotni eslatadi. Yashil rang - ona bo'yoq er yuzidagi yam - yashil tabiat ramzidir. Ular aralashmasidan hosil bo'lgan ranglardan xuddi onalik va otalik mehri kelib turgandek tuyuladi.

Ibn Sino ranglarning ruhiyatga ta'siri haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Qora, yashil rangdan ko'zga bor manfaat. Shu ranglardan topgay quvvat. Oqu sariq ranglar haddan ohsa agar, bundan sening ko'zlaringa etgay zarar".

Sariq rang ko'z nuri hamda nerv sistemalarini kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Bu boshqa ranglar ichida eng quvnog'i sanaladi. Qadimdan ota - bobolarimiz sariq rangni sariq kasalga davo deb hisoblab kelishgan. Shuning uchun bemorga sariq libos kiydirishgan va uyni sariq rangli buyumlar bilan jihozlashgan.

Mutaxassislar jumladan: to'q sariq rang - kayfiyatni yaxshilashi va ishtahani ochishini; yashil rang - kishilar ruhiyatini dam oldirishi, qon bosimini pasaytirishini; kul rang - sovuqni his qilishga chorlashi, asabni davolashi hamda qon bosimini tushirishini ta'kidlaydilar. Binafsha rang kishi asabini bo'shashtiradi. Qizil rang - iliqlikni his qilishga chorlaydi, kayfiyatni ko'taradi.

Xalq ustalari ranglarning ramziy ma'nosidan ham foydalanishgan. Chunonchi, ular quyidagilarni bilib, unga amal qilishgan.

Azaldan kishilar yangi uyga ko'chib o'tishdan oldin uyning ustunlari va shiftiga un sepishgan. Ayrim joylarda hanuz kelinnikiga kuyov tomonidan kelgan

quda - andalar un sepishadi. Xalqimiz odatda kelin - kuyov yo'liga oq matodan poyonoz to'shaydi.

Naqqoshlik san'ati tili hamda naqshlarning ramziy alifbosi, afsuski, mutlaqo unutilish arafasiga kelib qolgan.

Asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'ati keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlarini yo'qotishga haqqimiz yo'q. Ana shu sababli bu noyob san'at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o'rgatish muhim vazifamizdir.

Biz buyumlar rangini atrof-muhit foniga nisbatan idrok etamiz. Oq dasturxon ustiga olov rang apelsinlar qo'yilsa, dasturxon havorang, yashil olma qo'yilganda pushti rang bo'lib ko'rinadi. Bunga sabab, narsalar rangiga nisbatan fon rangi qo'shimcha rang tuslarini o'zgartiradi. Kulrang fon qizil buyum yonida sovuq, ko'k va yashil buyum yonida esa iliq bo'lib ko'rinadi. Buyumlar rangi muhit sharoitidan kelib chiqqan holda doimo o'zgarib turadi. Bunda yorug'lik katta ahamiyatga egadir. Agar buyumga tushayotgan yorug'lik sovuq rang bo'lsa, soyalar iliq rang bo'lib va aksincha tushayotgan yorug'lik iliq rang bo'lsa, soyalar sovuq rang bo'lib ko'rinadi. Yorug'lik va rang kontrastlari buyumning bukilgan joylarida, ya'ni shaklning burilishlarida, shuningdek kontrast fon bilan tutashuv chegaralarida rang tusi aniq va ravshan idrok etiladi.

Rang tusi ranglarning to'liq uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektakl ranglarni ko'ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Agar biror rangga oq rang qo'shilsa, mazkur rang tusining to'liqlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda faqatgini rang yorqinligi o'zgaradi va u qaytarish koeffisienti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lchash uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi.

Rang yorqinligi ham xromatik ranglarning asosiy xossalaridan biri bo'lib, tushayotgan yorug'lik nurini o'zida ko'p yoki kam aks ettirishidir. Agar yorug'lik nurlari ko'p aks etsa, biz rangni och tusda (masalan: och qizil, och sariq va

hokozolar), kam aks etas, to‘q tusda (masalan: to‘q yashil, to‘q qizil) idrok qilamiz. Ranglarning bu xossasi barcha tusdagi ranglar uchun – xromatik ranglar uchun ham, axromatik ranglar uchun ham umumiy hisoblanadi. Shuning uchun ranglarni yorqinligi jihatidan bir-birlariga taqqoslab ko‘rish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, xromatik ranglarning yorqinligiga mos tushadigan (xromatik rang qarama - qarshiligi) xromatik tusni tanlab olish onson bo‘ladi.

Rang tusalari spektr ranglariga qanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Rang to‘yinganligi ham ikkala rang gruppasiga xos narsa bo‘lib, arxromatik ranglardan ko‘proq kul ranglar shkalasiga, xromatik ranglarda esa ko‘pincha spektr ranglarga solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.


Rang tuslarining to‘yinganligi turlicha bo‘ladi. Masalan, birorti sariq rangni yorqinligi bo‘yicha unga teng keladigan och kul rang bilan aralashtirilsa, unda rang tusining to‘yinganligi bir necha pasayadi, oqishroq yoki kam to‘yingan bo‘lib qoladi. Agar biz kul rang qo‘shishni davom ettirsak, undan ham past rang tusini hosil bo‘lishini ko‘ramiz. Aralashmada kul rangning ta’siri kuchli bo‘lganligi uchun sariq tus sal-pal sezilishi yoki umuman sezilmasligi mumkin. Ranglar xalqasida bir-biriga ro‘baro‘ turgan rang dog‘chalari qarama-qarshi yoki to‘ldiruvchi ranglar deb ataladi. Ular ham o‘z navbatida bir-birlariga ohangdosh bo‘ladi va bir-birlarini to‘ldiradi.

To‘ldiruvchi ranglar qator qo‘yilganda muvofiqlashuv qonuniga binoan yanada ochiqroq yoki yorug‘roq bo‘lib ko‘rinadi. Aytaylik qizil rang yashil rang bilan yonma-yon qo‘yilsa, boshqa rang qatorlariga nisbatan yanada ochiqroq va qizilroq ko‘rinadi.

O‘quvchilarga ranglarning tusalari va to‘ldiruvchi ranglar to‘g‘risida gapirilganda ularning qanday yo‘llar bilan hosil qilinganligini tushuntirib o‘tish kifoya. Bularni o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda politrada amalda tajriba qilib ko‘radilar.

Agar ikkita to‘ldiruvchi rang bir xil miqdorda aralashtirilsa, kul rangga o‘xshab qoladi. Natijada birorta rangning yorug‘lik kuchini kamaytirish uchun

ustidan to'ldiruvchi rangning suyuq eritmasi bilan bo'yaladi yoki atrofidagi rang xalqasi o'zgartiriladi. Masalan: qizil rangni ozroq kuchsizlantirish uchun uni yashil rangining suyuq eritmasi bilan qoplash kerak. Goho yoniga birorta qizg'ish tusdagi bo'yoq suriladi.



ASOSIY, BIRIKMA VA QO‘SHIMCHA RANGLAR

RANGLARNING TURLANISH XOSSALARI



Nyutonning soddalashtirilgan rang spektri va musiqa oktavalarning taqqoslovchi chizmasi berilgan.

Ranglar tayyorlash texnologiyasi.

"Qora bo'yoqlar asosan anor pustlog'i va yong'oq mevasining pustidan tayyorlanganligi sababli ham 100 yildan ortiq muddatda ranglar tukila boshlashi ma'lum bo'lgan". Rangrezlar - bo'yoq tayyorlovchilar tomonidan tabiiy o'simliklar va turli xil meva hamda gullardan olingan bo'yoqlar yordamida bo'yoqchilar tomonidan bo'yalardi. Buxoro "rangrez" chilarining ko'pchiligi yaxudiyilar bo'lishgan. Ranglardan faqat indigo – nil - ko'k rang Hindistondan keltirilgan, qolganlari esa maxalliy o'simliklardan tayyorlangan. Keyinchalik indigo bo'yog'ini buxorolik rangrezlar ham tayyorlashgan. Ammo hunar sirini o'ta maxfiy saqlashgan, shusababli ham hozirga qadaruni tayyorlash texnologiyasi ochilmaydi kelmoqda.

Jaydari yo'llar bilan tayyorlangan tabiiy bo'yoqlar achchiq sirko yoki "zok" achchiq tosh eritmasida mustaxkamlangan.

Shundan keyin u uzoq muddat yorug'likda rangi uchmaydigan, yuvilganda esa rangi suvga chiqmaydigan bo'lgan.

G'ijduvon kashtalarining ranglarini "rangrezlar" maxalliy o'simlik va mevalardan olganlar. "O'smadan - yangil rang, hazorsi - bonddan – sariq rang, shotutdan - jigari rang, xasaki qopa tutdan - kul rang, yong'oq pustidan to'q yashil rang, qizil piyoz pustidan - to'q sariq rang, gilosdan - qizil rang, anor pustlog'idan - qora rang, gultoji xo'rozdan - qirmizi, qizil rang, o'sma suviga hazorsanband suvini qo'shib qaynatib feruza ranglar tayyorlashgan. Ipak iplarni tabiiy bo'yoqlarga bo'yash uchun ip kolavalari achchiq tosh eritilgan suvga solib quyilgan, keyin tozalab olinib bo'yoqli suvga solib qaynatilgach, sirkali suvga chayib qo'ritilgan.

G'ijduvonlik chevarlar ranglarni maxalliy tilda quyidagicha nomlanganlar: pistoli - yashil rang, nofarmon - siyoh rang, nilobi - ko'k rang, shirchoyi - gulobi rang, chilosi - to'q qizil rang, jigari -to'q qo'ng'ir rang, kabuti - och yashil rang, siyoh - qora rang, zard - qizil rang, xokistar - kul ranglar shular jumlasidan.

XX asrning boshlariga kelib, tabiiy ranglar o'rini anilin bo'yoqlar egalladi. G'ijduvon kashtachilari ham o'rining mayin ranglarini yo'qotib, tez,

yorqin, oftobda oqaradigan kimyoviy ranglarni ishlata boshlashdi. Bu esa, g'ijduvon kashtalarining qimmatini pasaytirishga sabab bo'ladi.

Sun'iy bo'yoq keng ko'lamda ishlab chiqarila boshlaganidan keyin ko'p vaqt o'tmay, tabiiy bo'yoq deyarli tayyorlanmay quyildi. Turli-tuman sun'iy bo'yoqlar yaratila boshlandi va hozir ularning soni 10 mingdan ortdi. O'zining xossalariga ko'ra sun'iy bo'yoq tabiiysidan qolishmaydi; tannarxi ancha arzon, qolaversa, uni olish juda oson. Bo'yoq hosil qilish uchun neft chiqindilari va toshko'mirni kokslashdan olingan maxsulotlar asosiy xom ashyo hisoblanadi.

Egnimizdagi hamma narsa - tugmachadan tortib to oyoq kiyimi ipigacha biron xil rangga bo'yalgan. Xonaga bir nazar tashlang. Devorda osiqliq, gilam, devor, zarparda, turli ro'zg'or anjomlari, bolalar uyinchog'i - bularning hammasi turfa ranglarga bo'yalgan. Mana shu ranglar tufayli biz rangli kinofilmlarni ko'ramiz, rang-barang tUSDagi rasmlar bilan bezatilgan jurnal va kitoblarni o'qiyimiz, turli rangdagi siyohlarda xat yozamiz. Ko'rib turibsizki, turli-tuman narsalarni bo'yashga to'g'ri keladi. Har bir material o'ziga xos usulda bo'yaladi.

Aytaylik terini bo'yash uchun unga oldin obdon ishlov berish zarur. Terini jundan tozalash maqsadida oldiniga bir necha kun natriy sulfid aralashtirilgan ohakli eritmaga solib quyiladi. Keyin yumshatish uchun teriga maxsus eritma bilan ishlov beriladi. So'ng pishiq va qayishqoq bo'lishi, nam o'tkazmasligi va chirimasligi uchun teri oshlanadi. Shundan keyingina kerakli rangga bo'yaladi.

Ishlab chiqarilayotgan bo'yoqlarning aksariyati to'qimachilik sanoatida gazlama bo'yashda ishlatiladi. Har turli, masalan, junli, ip, sintetik gazlama uchun xilma-xil bo'yoq kerak bo'ladi. Biroq hamma turdagi bo'yoq uchun bir xil talab quyiladi - u jozibali, tiniq bo'lishdan tashqari eng muximi aynimasligi kerak. Boshqacha aytganda, bo'yoq quyosh nurida o'ngimasligi, yuvganda uchmasligi, oq matoga yuqmasligi kerak. Ya'ni, bo'yoq gazlamaga mutlaqo singib ketishi lozim.

Aksari bo'yoq molekullari gazlama tolalari bilan tortishish kuchi hisobiga materialga mustaxkam singigan bo'ladi. Agar bordiyu, mana shu tortishish kuchi etarlicha, mustaxkam bo'lmasa, gazmol yuvilganda yoki

yomg'irda qolganda, rangi uchadi. Yaqinda ixtiro etilgan aktiv bo'yoqlar ancha pishiq bo'lib, uncha-muncha ta'sirdan oqarib ketavermaydi. Buning boisi shundaki, ularning molekulasida aktiv gramma mavjud bo'lib, gazmol bo'yalganda mana shu molekulalar parchalanadi. Buning natijasida esa bo'yoq bilan gazmol tolalari o'rtasida mustaxkam kimyoviy bog'ich hosil bo'ladi.

Gazlamaga gul bosish uchun maxsus bosma mashina ishlatiladi. Qanday gul bosilishiga qarab bosish usuli ham o'zgarib turadi. Aytaylik oq matoga binafsha rangli gul bosish kerak. Bunda gul bosadigan mashinada oq matoga bir xil rang beriladi, qarabsizki, gazlama tayyor.

Bordiyu buning aksi, binafsha rangli matoga oq gul berilmoqchi bo'lsa-chi! Bu holda maxsus uyuvchi eritma bilan binafsha rangda sidirg'a bo'yalgan matoga gul bosiladi. Uyuvchi eritma tarkibida biron-bir rangli, aytaylik sariq rangli bo'yoq ham bo'lishi mumkin. Bu holda matoning rangi sariq gulli binafsha tusda bo'ladi. Murakkab gullarni bosish uchun extiyot bosma usulidan foydalaniladi. Matoning gul bosiladigan joylari "extiyotlovchi" modda bilan qoplanadi va sidirg'a rang berilayotganda o'sha joy bo'yalmaydi.

Bundan bir necha yil ilgari matoga murakkab gul bosishning yangi usuli ishlab chiqarishga joriy etildi. Mazkur usulda gul xuddi bolalarning "o'zing bo'yab ol" degan suratli kitobidagiga o'xshash tarzda matoga tushiriladi. Oldiniga gul qog'ozga tushiriladi, keyin, qog'oz matoga yopishtiriladi va bo'yoq matoga o'taveradi. Shu tariqa matoga ko'p rangli va xilma-xil gulli suratni tushirish mumkin.


Shu paytgacha faqat rangli bo'yoqlar to'g'risida so'z yuritdik. Biroq, turli, anvoyi rangli matolardan tashqari oq surup, oq qog'oz ham kerak-ku. Oq matoga yanada oqliqtiniqlik berish uchun optik oqartiruvchilar yoki beloforlar qo'llaniladi. Xush, buning nima keragi bor? Mazkur savolga javob berishdan oldin, oq rangning o'zi nimaligini yana bir bor eslab ko'raylik.

Yorug'likning ko'rinadigan nurlarini yutmay qaytaradigan har qanday jism bizga oq bo'lib ko'rinadi. Agar jism biron bir kurinuvchi nurni yutsa, u holda bizga o'sha narsa bo'yalgandek tuyuladi. Uning qanday rangda ko'rinishi esa jism yorug'likning qanday nurini yutayotganiga bog'liq bo'ladi.

Hammamiz yaxshi bilamizki, oq qog'oz oftobda qolsa, tezda sarg'ayadi. Buning sababi quyosh nuri ta'sirida qog'ozda o'zgarish jarayoni ruy berishi va u havo rangni yuta boshlashidir. Yuvilganidan keyin, oq matoda ham shunday jarayon yuz beradi. Mana shunda beloforlar yordamga keladi. Tarkibi buyicha ularning oddiy bo'yoqlardan farqi yo'q. Biroq ularning molekulasi qiziq xususiyatga ega. Ular ko'zga ko'rinmas ultrabinafsha nurlarini yutib, kurinuvchi nurlarga aylantirib beradi. Qog'oz yoki matoning xuddi mana shu nurni yutish xossasi ularning sarg'ayishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, oq matoga oqlovchi modda bilan ishlov berilishi tufayli mato sarg'ayishining oldi olinadi. Mazkur usulda ishlov berilgandan keyin mato yanada oq, yanada tiniq ko'rinadi.




74b



II BOB. AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA RANGSHUNOSLIK TEXNOLOGIYASI

2.1. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda ranglarning ramziy ifodasi.

Tabiiy xom-ashyolardan rangli bo'yoqlar tayyorlash. Agar ingliz kimyogari Uilyam Perkin bir necha o'n yil keyinroq yashab o'tganda bezgakda qarshi ishlatiladigan kimyoviy moddasini anilindan olaman deb ovora bo'lib yurmagan bo'larmidi balki, 1856 yili organik kimyo fan sifatida hali unchalik rivojlanmaganligi sababli ham olim o'zi boshlagan ishdan biron natija chiqmasligini anglab etolmadi. U tajriba ustiga tajriba o'tkazishdan erinmas va har gal kimeviy o'rniga qatronga o'xshash qaramoy olardi. Kunlarning birida mana shu katrondan chiroyli binafsha-rang modda hosil bo'lganda u taajjubdan yoqasini ushladi. Keyin muvaffaqiyatga unchalik ishonmay tuyib shoyini bo'yab ko'rdi-yu... o'shandan bo'yon olimning komi kimyo fani tarixiga abadiy yozilib qoldi. U dastlabkildan bo'lib, sun'iy bo'yoq mavqeini kashf etgan edi. Perkin yosh bo'lishiga qaramay - sun'iy bo'yoqni ixtiro qilganda bor-yo'g'i 18 yashar edi - nixoyatda churt kesar, hozir javob, o'shlaganini quymaydigan, uddaburron odam edi. U ikki yil deganda mavqeini ishlab chiqaradigan zavod tashkil etdi. Shu paytdan boshlab sun'iy yoki hozir keng rasm bo'lgan sintetik bo'yoq ishlab chiqarish davri boshlandi.



Akvarel bo‘yoq‘i va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Bo‘yoqlar akvarel, guash, tempera va moy bo‘yoq turlari mavjud. Bo‘yoqlar akvarel lotincha so‘z bo‘lib, suvga qoriladigan bo‘yoq, shuningdeq "akvarelda ishlangan rasm" degan ma‘noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo‘llanilgan. XIX asrda akvarelda yirik san‘at asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi. D.Kozens, Turner, D.Konstabel, R.Bonington, T.Gertin kabi rasomlar o‘zlarining akvarelda ishlagan asarlarida Angliyaning go‘zal tabiatini moxirlik bilan ishlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san‘ati XVIII asrdan boshlab keng yoyila boshlandi. O‘rta asrlarda Rossiyada bo‘lganidek g‘arbiy Evropa ham akvareldan cherkovga qarashli bo‘lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustratsiyalar bilan bezashda foydalaniladi. Lekin u vaqtlarda akvarel oq bo‘yoq moddasi qo‘shilgan holda ishlatilar edi.

O‘rta Osiyo akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo‘llaniladi. O‘rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustratsiyalar ishlashda shuhrat qozondi.

Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarining ko‘payishiga va xilma-xillashuviga olib keladi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud. Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar.

Bog‘lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni bo‘yoq rangini o‘zgartirmaydigan, qog‘ozga surtiganda tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Bog‘lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo‘ri va boshqa daraxtlarning shiralariidan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek bo‘yoqning tez qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, dekstrinlar miqdorda olinish lozim. Har bir akvarel uchun Bog‘lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi. Taxtacha ko‘rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning,

dekstrining suvdagi eritmasi, meva shakari, xo‘kiz o‘tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo‘ladi. Dastavval, shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Meva shakari suv bilan aralashtirilib, siropsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birlikda tuxtovsiz aralashtiriladi hamda unga o‘tdan tayyorlangan aralashma va fenoldan keraklicha tomiziladi. Chinni idishlardagi - yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko‘proq miqdorda olinib, meva shakari o‘rniga asalari mumi va glitsirin qo‘shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi elementning ko‘pchilik qismini asal tashkil etadi. Glitsirin va shira ozroq miqdorda qo‘shiladi. Akvarel tayyorlashda qo‘llaniladigan bo‘yoq kukunlari tabiiy yoki sun‘iy kukunlar bo‘lishi mumkin. Ayrimlari o‘simliklar yoki hayvonda uchraydigan pigmentlardan (masalan, jigar rang, karmili bo‘yoqlardan) tayyorlanadi. Bo‘yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-birlari bilan yaxshi aralashishiga e‘tibor berish lozim. Masalan, qo‘yidagi bo‘yoq kukunlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

Sariq kukunlar: tabiiy jigar rang, sariq mars, zarg‘aldoq mars va xokazo.

Qizil kukunlar; qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusdagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli laklar.

Zangori: zangori laklar.

Jigar rangli kukunlar: kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars, qora kukunlar uzumdan olinadi.

Akvarel tayyorlash uchun bo‘yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi. Agarda sinash uchun olingan bo‘yoq suvda yaxshi erisa, aralshtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo‘lgan hisoblanadi.

Shuni esda tutish lozimki, quyilgan akvarel bo'yog'i qo'rganidan keyin o'z rangini bir oz o'zgartirib, ochlashadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi.

Biz yuqorida faqatgina akvarel bo'yog'ining harakterli uo'uo'siyatlariga to'xtalib o'tdik. Chunki siz ana shu bo'yoq yordamida o'quv topshiriqlarini bajarasizlar.

Akvarel bo'yog'idan foydalanish texnologiyasi.

Akvarel bo'yoqlarida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi mavjud bo'lib, unga amal qilinmasa tayyorlangan ishlarning sifatiga putur etishi mumkin. Biz akvarel bo'yog'ida biror naqshni yoki bezakni bo'yashimizdan oldin uning chiziqli tasvirini tayyorlab olamiz. So'ng, bo'yashga o'tamiz.

Mo'yqalamda bo'yoq olinayotganda uni xaddan tashqari qattiq ishqalash mumkin emas. Aks holda mo'yqalam edirilib ketishi mumkin. Olingan bo'yoq qavati qog'oz sirtiga yupqa qavat tarzida surtilishi lozim. Agar bo'yoq qavati xaddan tashqari quyuc bo'lsa, qog'oz sirti ko'rinmay qoladi va akvarel bo'yog'ida ishlash texnikasi qo'pol ravishda buzilgan bo'ladi. Lekin, akvarelda naqshlar va bezaklarni bo'yayotganda bu tartibga boshqacharoq tarzda rioya qilinadi. Naqshlar va bezaklarda bo'yoqlarning turli-tuman tuslaridan ham foydalaniladigan bo'lganligi sababli, uning tuslarini ko'proq yoki kamroq surtish orqali ochlashtirish yoki to'qlaq. Chunki bo'yog'larning jo'da och tuslarini hosil qilishda guashning oq bo'yog'i ham qo'shib ishlatiladi. Demak o'z-o'zidan mazkur bo'yoq aralashgan rang tuslari yuzaga qalin qoplam bo'lib yotadi.

Akvarelda naqsh yoki bezak ishlanayotganda rang tuslarining toza bo'lishiga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Bir bo'yoq olinganidan so'ng ikkinchi xil bo'yoq olinishidan oldin mo'yqalam tozalab yuvib tashlanadi. Shunday qilinsa bo'yoq tuslari toza va chiroyli ko'rinishda bo'ladi.

Guash bo‘yog‘i bilan ishlash texnologiyasi.

Guash – italyanча suvli bo‘yoq degan ma‘noni bildiradi. Kukun bilan suv elim Bog‘lovchilari ya‘ni aqoqiy, bug‘doy kraxmali, dekstrin va boshqalar hamda oq bo‘yoq (belila) aralashmasidan iborat bo‘yoq. Qog‘oz, karton, faner, mato, suyakka naqsh, tasvir ishlashda qo‘llaniladi. Guash bo‘yog‘idan o‘rta asrlardayoq Osiyo va Evropaning ko‘p mamlakatlarida, asosan kitob minatyurasidan foydalanib kelingan. XIX asr o‘rtalaridan guash bo‘yog‘ sanoatida ishlab chiqarila boshlagach, mustaqil usulga aylanadi. Guash akvareldan oq bo‘yoq qo‘shilganligi, bo‘yoq qatlamining qalinligi va bo‘yoq qatlamlarining xiraligi bilan farq qiladi. Hozirda guash plakat, amaliy grafika va kitob grafikasi, teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatyura, maxobatli rangtasvir, noqqoshlik va boshqalarda keng qo‘llanib kelinmoqda. Guash bo‘yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubiklar holida ishlab chiqariladi.

Guash bo‘yog‘i quyuq, ko‘rinishda bo‘ladi. U qo‘rib qolmasligi uchun ustiga glitsirin, suv, kuchsiz olcha shirasi va boshqalar quyuladi. Guash bo‘yog‘ida ishlashning o‘ziga xos texnologiyasi bo‘lib, mo‘yqalamda oson olinishi, qo‘riganda o‘qalanib, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo‘yoq qavatining bir tekisda to‘la berkitadigan bo‘lishi kerak. Guash bo‘yog‘ining tarkibiy Bog‘lovchisi deksirin, glitserin hisoblanadi. Guash bo‘yog‘ini tayyorlashda bo‘yoq kukunlaridan foydalaniladi. Guash bo‘yog‘ida akvarel mo‘yqalamlari va ulardan bir oz qattiqroq mo‘yqalamlar hamda moy bo‘yoqlari uchun chiqarilgan mo‘yqalamlardan ham foydalaniladi. Maxsus rassomchilik va badiiy ishlarida aloxida emulsiyalardan tayyorlangan guash bo‘yoqlar ishlatiladi. U o‘zining tiniqligi, rangining chiroyligi bilan farqlanadi. Guashning floruentsiyali guash deb ataladigan turi ham bo‘ladi.

Bu guash turining akvarel va temperalar bilan aralashtirib ishlatilsa ham bo‘ladi. Florutsentsiyali guash o‘zining chiroyligi, tekisligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Umuman guash bo‘yoqlari rasmlar, naqshlar har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi.

Guash bo‘yog‘ida ishlashda ham ana shu tartiblarga rioya qilinsada, uning tuslari yuzaga o‘ta qalin bo‘lib qoplanishi bilan farq qiladi. Buni unutmazlik

lozimki, guash bo‘yoqlarining tarkibida oq bo‘yoq moddasi mavjud bo‘lganligi sababli uning tuslari keyinchalik ochlashib ketadi. Shunga ko‘ra olinadigan rang tuslari belgilangan darajadan ancha to‘qroq tuslarda bo‘lishi lozim. Aks holda bo‘yoq qavatini hulligida to‘q bo‘lgan rang tuslari keyinchalik ochlashib ketadi va ko‘rinishini buzadi.

Guash bo‘yog‘ida ishlangan naqshlar va bezaklar rang tuslarining ancha xiraligi bilan akvareldan farq qiladi. Ularning ana shu harakterli xususiyatlardan kelib chiqqan holda ko‘pincha aralashtirib ishlatiladi. Guash bo‘yog‘i quyugligi jixatidan moybo‘yoqlariga o‘xshab ketsada, lekin faqat qog‘ozlar sirtigagina bezaklar ishlash mumkin bo‘ladi. Ba’zi hollarda guash bo‘yog‘idan miniatyura ishlashda, qutichalar sirtini bezash va lak bilan qoplash orqali foydalaniladi.

Guash bo‘yog‘ini tarkibiy bog‘lovchilarga dekstrin, glitserin va boshqalar hisoblanadi. Kraxmal elimining asosiy turli dekstrindir. Dekstrinni, kraxmalni yoki suyuq kraxmalni qayta ishlash yo‘li bilan olinadi. Uning oq va sariq tuslilari bo‘ladi. Oq to‘uli dekstrin faqat qizdirilganda suvda eriydi, hamda sovuganda butqasimon ko‘rinishga ega bo‘ladi. Sariq rangli dekstrin sovuq suvda onson erib, dekstrin elimini hosil qiladi. Glitserinni vazifasi shundaki, guashni tez qurib qotib qolishini oldini oladi.

Guash bo‘yog‘ini tayrlashda akvarel uchun ishlatiladigan bo‘yoq kukunlaridan foydalaniladi. Oq bo‘yoq esa rang tuslariga qarab ma’lum miqdorda qo‘shiladi. Shuningdek ularning tarkibini mustaxkamlash uchun kaolin va blanfikslardan foydalaniladi. Oq bo‘yoqlarning qurg‘oshinli, titanli, baritli, sinkali tuslari mavjud. Guash bo‘yoqlari uchun emulsiya tayyorlashda suv, bug‘doy kraxmali, novvot suvi, olcha shirasi, glitserin, xukiz o‘ti, fenol kabi moddalar kerak bo‘ladi.

Badiiy bezakli tasvirlar ishlashda guashning Bog‘lovchi emulsiyasi boshqacha tartibda tayrlanadi. Bunda kraxmal elimi Bog‘lovchi element hisoblanadi. Tiniq tUSDagi guash bo‘yoqlarini tayrlashda duradgorlik elimi, bug‘doy kraxmali, suv, natriy ishqori kabi moddalardan foydalaniladi.

Duradgorlik elimini esa oldindan tayyorlangan kraxmal elimiga aralashtirish tavsifiya etiladi.

“Guash bo‘yog‘ini tayyorlashda Bog‘lovchi emulsiyaga bo‘yoq kukuni va oq bo‘yoq qo‘shiladi, hamda yaxshilab iylanadi. Bo‘yoqlarni tayrlashda maxsus apparatdan yoki hovonchadan foydalanish mumkin. Aralashma quyiq qaymoq ko‘rinishiga kelguncha ishlanadi. Qolgan ishlar odatdagicha bajariladi. Guash bo‘yoqlarining hammasiga bir xil tarkibli Bog‘lovchi emulsiyani qo‘llash qiyin. Shuning uchun kerakli rang tuslarini hosil qilishda biror elementni ko‘proqki ozroq olishga to‘g‘ri keladi”.¹


Guash bo‘yoqlari bilan ishlashda akvarel, tempera va moybo‘yoqlari uchun qo‘llaniladigan metodlardan foydalaniladi. Naqsh ishlashda, rang tuslarini har xil ko‘rinishini hosil qilishda suvni ko‘p qo‘shib yuborilsa, o‘zini xususiyatini o‘zgartirib bo‘yalayotgan yuza tekis chiqmay, ola-bo‘la chiqadi.

Agar guash qurib qotib qolgan bo‘lsa, ustiga iliq suv, suyuq duradgorlik elimi yoki PVA bo‘yog‘i qo‘shiladi. Ikki yoki uch kun o‘tgandan so‘ng guash yaxshilab aralashtiriladi. Guash qumo-qumo bo‘lib qolgan bo‘lsa uni dokadan yoki kapron paypoqdan o‘tkazib olish kerak. Guashga duradgorlik elimi yoki PVA qo‘shilishi sababi uning tarkibini mustaxkamlaydi. Yana ishchi yuzani bo‘yalgan joyi qo‘lga yuqmaydigan bo‘ladi.

Ish jaryonida guash idishlaridan oddiy tayoqcha yoki maxsus oddiy kurakchalardan foydalaniladi. Shu kurakchalar yordamida bo‘yoqlar olinadi. Har bir guash bo‘yoq rangiga aloxida kurakcha ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Guash bo‘yog‘ini ishlatishda akvarel, mo‘yqalam va maxsus guash bo‘yog‘i uchun akvarel mo‘yqalamidan qattiqroq mo‘yqalamlar ishlatiladi. Ko‘pincha guash bo‘yog‘i uchun ishlab chiqarilgan yumshoq yoki yapaloq mo‘yqalamlar ishlatib kelinadi. Naqqoshlikda oq rang, limonli sariq, qadmiyli sariq, stransion sariq, tilla rang oxra, qizil rang, alvon rang, qirmizi, zumrad, sovuq tusli yashil, to‘q zangori, havo rang, qora rang va boshqalar ko‘p ishlatiladi.

¹ Egamov X. Bo‘yoqlar bilan ishlash. -T.: O‘qituvchi, 1981. -56 b.



Namoyon. Ganch va rang

Keksa ustalarimizning aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ustalar chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir - birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va rangining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma'nolari:

Teng tomonli uchburchak - tik turgan holati hayotning boshlanishini, teskari turgan holati esa hayotning oxirini bildiradi.

Teng yonli uchburchak - yaxlit bo'lingan bo'lak, ayriliq.

Kvadrat - dunyoning to'rt tomoni, osmon saroyi, Quyosh farzandi, abadiylik, yorug'lik, mustahkamlik.

To'g'ri to'rtburchak - ishonch.

Romb - ayol, ya'ni Ona-er ramzi, serfarzandlik.

Aylana - olam, baxt, Quyosh, odamlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi.

Besh qirrali yulduz - hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo.

Yarim aylana - baxt.

Yarim oy - islom dinining ifodasi. Musulmonlik ramzi.

Quyosh - hayot ramzi.

Bulug, olov - g'oliblik ramzi.

Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari:

Bodom - baxt - iqbol.

Barg - bahorgi uyg'onish.

Qalampir - har xil yomonliklardan va yomon ko'zdan asrash ramzi.

Zirk guli (gulsafsar) - osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor - ezgulik, to'qchilik.

Oygul - baxt - iqbol ramzi.

Jingala - to'kin - sochinlik, boylik ramzi.

Olma - muhabbat ramzi.

Navda - boylik va farovonlik.

Yaproq - bahorgi uyg'onish, navro'z.

Isiriq - yomon koʻzdan asrash ramzi.

Atirgul - goʻzallik ramzi.

Qush va hayvonlarning ramziy maʼnolari:

Sher - mardlik, jasorat va kuchlilik ramzi.

Tulki - makkorlik.

Chumoli - donolik, xokisorlik ramzi.

Bulbul - sadoqat.

Xumo - baxt qushi.

Boyqush - baxtsizlik, vayronalik.

Baliq - xushyorlik ramzi.

Sichqon - uy hayvonlarining koʻpayishi ramzi.

Echki yoki qoʻchqor - jasurlik, mardlik, pokizalik ramzi.

Oq kabutar - tinchlik.

Ohu - goʻzallik, himoyasizlik, noziklik.

Buyumlarning ramziy maʼnolari:

Taqa - yomon koʻzdan asrash.

Shisha, oyna - koʻngil, soflik, noziklik ramzi.

Oq rang - tozalik, yorugʻlik, baxt, omad ramzi va h.k.

2.2. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ilshov berishda ranglash texnologiyasi

Ranglarning kishi ruhiyatiga ta'siri o'ziga xosdir. Ranglarni tabiatda insonlarning o'zlari tanlaydilar. Rang tuslari orqali kishilarning xarakteri kayfiyati va boshqa xususiyatlarini belgilash mumkin. Tabiatan issiq rang tuslarini yoqtiruvchi kishilar jo'shqin to'pori, qiziqqon xarakter egalari sanalsa – sovuq rang ixlosmandlari aksincha muloyim, bosiq chehrali kishilardir. Ranglarning inson ruhiy olamiga ta'sirini ko'rib chiqaylik:

Yashil rang tinchlantiradi.

Sariq rang tetiklashtiradi.

Qizil rang kayfiyatni ko'taradi.

To'q havo rang ishtaha ochadi.

Zarg'aldoq rang e'tiborni tortadi.

Ranglar mazmuni

Yashil rang – ona tabiat ramzi.

Ko'k rang – moviy osmon.

Qizil rang – g'alaba, shodlik.

Sariq rang – muqaddaslik.

Qora rang – motam.

zangori – oliy e'tiqod.

Oq rang – tozalik, baxt va omad ramzi.

Naqqoshlikda kompozitsiya qonuniyatlaridan tashqari uni bo'yashda qo'llaniladigan bo'yoq turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, rang koloriti, hamohanglik va shu kabilar muhim ahamiyatga ega.

Xalq ustalari tomonidan yaratilgan amaliy san'at namunalarini kuzatar ekanmiz, ular biron-bir rang tuslari ta'siriga ya'ni rang kaloritiga bo'ysundirilganini ko'ramiz. Shunga asosan havorang, yashil rang, jigar rang va shu kabilar muhitiga xos naqsh kompozitsiyalari ishlanadi.

Mo'jaz bezatilgan buyumlardan tortib katta-katta bino va inshootlar asosan rang va chizgilar jilosida nechog'lik nafis va ulug'vor ko'rinadi.

Har bir voha va naqqoshlik maktablarining o'ziga xos rang kaloritlari mavjud bo'lib, Xorazm naqqoshlari havo rang, Qo'qon ustalari qizil-zangori, Toshkent naqqoshlari esa to'ti yoyi va och jiggar rang tuslarida ijod qiladilar.

Albatta naqqoshlik san'atida oddiy chiziqlar mohiyatini rang tuslari ochib beradi. Naqshlarni bo'yashda zamin va shakl oraliqlariga to'q rang, gul novda va boshqa elementlariga och ranglar beriladi. Ranglash bosqichlarida iliq va issiq ranglar aralash qo'llanilmaydi. Aksincha, naqsh namunalarining umumiy talqinlariga e'tibor beriladi. Ma'lumki, iliq ranglar tarkibiga: qizil, qirmizi, gulnor, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Bu kabi ranglar issiq havo, quyosh taftini, sovuq ranglarga esa salqinlik, suv, muz holatini anglatuvchilar kiradi. Yashil ranglar iliq-issiq ranglardir.

Atrof-muhitdagi narsalar tushayotgan yorug'lik ta'siri ostida o'zlarining rang tuslarini tez-tez o'zgartirib turadi. Masalan, quyosh nuri yon tomondan yoritib turgan maysalarning rangi sarg'ish-yashil ko'rinishda bo'lsa, xuddi shu maysaning soyada turganlari bir oz to'qroq yashil rangda ko'rinadi. Naqqoshlikda ham ranglarning ana shu xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rish lozim bo'ladi. Agarda ishlanadigan naqsh yorug'roq joyga qo'yiladigan yoki ishlanadigan bo'lsa, rang tuslarini bir oz to'qroq olish mumkin. Aksincha, bir oz yorug'lik nurlari kamroq tushadigan erlarga joylashtiriladigan bo'lsa yorug'roq ko'rinishdagi rang tuslaridan foydalaniladi.

Naqqoshlikda suv va moybo'yoqlardan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida rangshunoslik borasida ham kerakli bilim va amaliy malakalarga ega bo'lishlari lozimligini taqozo etadi.

Tayyor naqsh namunalarini bo'yashda bir rangning bir necha hil tuslari qo'llaniladi. Bunda oq bo'yoq asosiy o'rinni egallaydi. Akvarel bo'yoqlari bilan qog'ozga ishlangan naqshlarni bo'yayotganda esa suv-rang tusini ochlashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga egadir.

Shuni esda tutish lozimki, ayrim bo'yoqlarni bir-birlari bilan aralashtirishda ba'zi bir ehtiyot choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Chunki, to'q rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq tarkibiga boshqa rang aralashtirilsa uning tusi ham to'qlashadi.

Bu esa o'z navbatida rang tusining tiniqlik darajasiga ta'sir etadi. Ayniqsa, moy bo'yoqlarida ishlangan naqshlarning tuslari keyinchalik to'qlashib, qorayib ketishga moyil bo'ladi. Agarda naqshlar uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan bo'lsa ularni iloji boricha ochiq rang tuslarida bo'yash tavsiya etiladi. Umuman olganda naqsh sirtiga iloji boricha quyosh nuri tushmaydigan bo'lishi lozim. Shuningdek, nam havo yoki suv tegishi naqshning uzoq muddatga saqlanishi uchun jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Umuman olganda badiiy naqqoshlikda ana shu sharoitlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Badiiy naqqoshlikda quyidagi ranglar va ularning tuslaridan keng ko'lamda foydalaniladi:

Zangori ranglar va ularning tuslari (och zangori, zangori, to'q zangori, och havo rang, havo rang, to'q havo rang, moviy ko'k).

Sariq ranglar va ularning tuslari (och sariq, sariq, to'q sariq sarg'ish, limonli sariq, kadmiyli sariq, sarg'ish zarg'aldoq).

Qizil ranglar va ularning tuslari (och qizil, qizil, to'q qizil, och va to'q qirmizi, qirmizi, alvon rang, och va to'q zarg'aldoq, zarg'aldoq ranglar va boshqalar).

Yashil rang va ularning turlari (och va to'q yashil, yashil, sarg'ish yashil, to'tyoyi (to'taki), zaynovi (chiroyli o'tkir rang yashil), zumrad rang, ko'kish yashil).

Binafsha rang va ularaning tuslari (och va to'q binafsha , binafsha siyoh rang, ko'kish binafsha qizg'ish binafsha va shu kabilar).

Jigar ranglar va ularning tuslari (och va to'q jigar rang, jigar rang, qizg'ish va sarg'ish jigar rang, qoramtir jigar rang va boshqalar).

Qora rang va uning tuslari (och va to'q qora, qora och va to'q kul rang va shu kabilar).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ranglar va ularning tuslari ko'pincha badiiy naqsh koloritini belgilashda katta o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra rang muhiti biror bir aniq rang tusi koloritiga bo'ysundiriladi. Masalan jigar rang, havo rang, sarg'ish yoki qizg'ish ranglar muhitida ishlangan naqsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va pardoqlash.

Naqsh rang bilan jozibalidir. Naqsh elementlarining ko'zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamohangligi va o'ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin.

Naqshda rang uyg'unligiga erishish katta san'atdir. Rang uyg'unligi deb ma'lum bir yuzadagi turli ranglarning qaysi tomonlari bilandir o'zaro mos kelishiga aytiladi. Rang uyg'unligini ko'ra bilish va yarata olish uchun qaysi rangni qanday rang bilan aralashtirish mumkin, uni qaysinisi bilan aralashtirib bo'lmasligini, qaysi ranglar yonma-yon kelsa, rang uyg'unligi paydo bo'lishini bilish kerak. Ranglar uyg'unligi to'g'ri topilsa, mavjud barcha ranglarni qo'llash imkoniyati keskin ortadi, san'atkor ranglar yordamida mo'jizalar yaratadi

Xalq ustalarining ijodiy ishlarini qaysi naqqoshlik maktabiga mansub ekanligini naqsh kompozitsiyasi va rang tuslari orqali tezda aniqlab olish mumkin. Masalan: Xorazm naqshlarida havo rang yashil tuslarni ko'plab uchratish mumkin. Naqsh elementlari esa spiralsimon islmiy naqshlarni tashkil etadi. Farg'ona uslubi esa yashil ko'k, qizil rang tuslarining bir oz to'qroq darajada aralash uyg'unlashuvchi bilan xarakterlidir. Toshkent naqshlari och yashil – havo rang, to'ti yoyi hamda och jigar rang tuslarda tovlanadi.

Naqsh elementlarini Ovro'po bezakchilik tuslariga xos oltinsimon jigar rang koloritlarida turlash usullarini birinchi bo'lib naqqoshlik san'atiga usta Toir To'xtaho'jaev kiritgan .

Mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev o'z ustozlari J.Xakimov va T.To'xtaho'jaevlarni xotirlab shunday deydi: –“Naqqoshlik san'atini sehircilarlik san'atiga qiyosligim keladi. Naqqosh turli rang tuslari orqali naqshdagi jonsiz chiziqlarni kuylata oladi. Ustozlarim Jalil Xakimov va Toir To'xtaho'jaevning ijodlarini olaylik. Jalil Xakimovning ijodiy uslublarini mumtoz klassik yo'nalish deb olsak, Toir akaning naqshlarida lirikani his qiladi kishi”¹

Naqqoshlikda ranglar naqsh tuzilishi va uslublariga xos ravishda tovlanadi. Shuningdek, naqsh ishlanadigan buyum yoki yuzaning maqsad-vazifalari, hajmli,

¹ Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. -T: Iqtisod-moliya, 2007.18 bet



balandligi va kompozitsion echimlari alohida e'tiborga olinadi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida ustalar (ayniqsa bino bezaklari) masofani ranglash va pardoqlash bosqichlarini ham hisobga oladilar. Bu esa naqshdagi rang tuslarining teng tarqalishi – zamin shakl va gul elementlarining oraliqlaridan yaxshi ko'rinishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki naqshda har bir element shakl va rang tuslarining o'z nomlari, ramziy ma'nolari mavjud. Naqshlarni ranglash va pardoqlash bilan ularning go'zalligini, mazmun va ma'nolari unsiz tovushlar orqali ifodalanadi. Naqshlarni ranglash bosqichlarida zamin shakl, gul, novda, barg kabi elementlar asosan bitta rang koloritiga bo'ysungan holda turlanadi. Naqshni ranglash bosqichlari quyidagicha:

1. Naqshning zaminini (tagini) ranglash.
2. Naqshdagi shakl oralarini ranglash.
3. Naqshning gullari, barglari va bandlariga rang berish.
4. Naqshning shkufta va yo'l chiziqlarini ranglash.
5. Naqshga siyoh qalam va targ'il berish.
6. Naqshning oq bandlari va obisini tortish

Naqshlarga rang berishda qalamda chizilgan chiziqlarni berkitish, chala bo'yamaslikka alohida e'tibor berish kerak. Naqsh ranglari bir-biri bilan tutashtirilgan holda bo'yalmasa, siyoh qalamda berilgan pardoq ko'ngildagidek chiqmaydi. Natijada naqshning go'zalligi va chiroyiga putur etadi.

Naqshlarni asosan guash va akvarel bo'yoqlari yordamida bo'yash maqsadga muvofiqdir. Ranglarning xilma-xil tuslarini tayyorlashda guashning oq bo'yog'i etakchi vazifani o'taydi. Naqshni bo'yash uchun bo'yoqlar chinni yoki plastmassa idishchalarda tayyorlanadi. Ayniqsa, maxsus chiqarilgan kolerlarni bir biriga qorishtirishda yog'och kurakchalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda har bir rang tusi uchun alohida yog'och kurakcha qo'llaniladi. Bu o'z navbatida bo'yoqlarni ifloslanib ketishdan saqlaydi. Tayyorlangan bo'yoq judayam suyuq bo'lsa, unda naqsh yuzasi bir tekisda bo'yalmaydi. Guash bo'yog'ini qog'oz sathiga qalin va quyuk surtish mumkin emas. Chunki qalin bo'yoq qavati quriganidan so'ng, yorilib ko'chib ketadi.



Naqshning zamini – foni uchun rang tayyorlashda uning tusi to‘qroq olinadi. Sababi, to‘q rangli zaminda boshqa engil, ochiq tUSDagi ranglar yanada tiniq va ravshan, go‘zal bo‘lib ko‘rinadi. Naqshning shaklini ifodalovchi ko‘rinishlarni ajratib bo‘yashda o‘rtacha to‘qlikdagi yoki ochroq tUSDagi ranglardan foydalaniladi. Naqshdagi “Bofta” kabi bog‘lovchi elementlar to‘q ranglar yordamida bo‘yalsa, gul, g‘uncha, barg elementlari esa och ranglarda tuslanadi.

Naqsh namunalarini bo‘yashda asosan garmoniya, faktura va kontrastlikka e‘tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Garmoniya – grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, munosiblik, bog‘liq bo‘lish, eng go‘zal bog‘lanish degan ma‘nolarni anglatadi.

Faktura – lotincha so‘z bo‘lib, narsa yoki buyumning tuzilishi, ishlov berish demakdir.

Kontrast – fransuzcha so‘z bo‘lib, keskin farq, farqlanish ma’nosida qo‘llaniladi. Naqshda ranglar kontrastini zamin va gul elementlarining tuslanishida kuzatish mumkin.

Naqshni bo‘yashdan oldin tayyor bo‘yoq oq qog‘ozga surtib, sinab ko‘riladi. Qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo‘lsagina, u bilan kerakli joylar bo‘yab chiqiladi. Bunda naqsh namunasidagi mazkur rang tusi bilan bo‘yaladigan qismlarga etadigan miqdorda bo‘yoq tayyorlab olinadi. Agar bo‘yoq etmay qolsa, keyingi tayyorlangan bo‘yoq tusi boshqacha bo‘lib qolishi mumkin. Natijada naqsh namunasining bir butun, yaxlit ko‘rinishiga putur etadi.

Siyoh qalam – eng nozik qil qalam bo‘lib, uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Siyoh so‘zi – qora rang degan tushunchani anglatib, qora rangda naqsh elementlarining chetlarini qalamdek chizib chiqish demakdir.

Targ‘il – gul, g‘uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida ochib berishdir.

III BOB. AMALIY SAN'AT BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISHDA TURLI RANGLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI.

3.1. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Men reja asosidagi Uchtepa tumani milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejida o'tkazilgan pedagogik amaliyot jarayonida mazkur kollejning yog'och o'ymakorligi va badiiy libos yo'nalishlarining kompozitsiya mashg'ulotlarini kuzatdim. Barcha o'qituvchilar har bir darsini tasdiqlangan ishchi dastur asosida o'tishmoqda. Dastlab vazifalar haqida og'zaki nazariy topshiriqlar, ko'rsatmalar asoslab berilib, so'ng talabalar bilan savol-javob tariqasida mavzuni mustahkamlab olindi. Talabalar aniq topshiriqlar olgach amaliy jarayonni boshlab yuboradilar.

Amaliy san'at ta'limining barcha yo'nalishlarida naqqoshlik asosiy fan hisoblanadi. Shunday bo'lsada har bir yo'nalishning naqsh kompozitsiyasini tuzilishi o'ziga xos. Naqsh kompozitsiyasini qog'oz sathiga to'g'ri joylashtirish (komponovka) asosiy vazifalardan biridir. Kompozitsiya qonun-qoidalari: joylashtirish, yaxlitlik, simmetriya, ritm, nisbiylikka alohida-alohida e'tibor beriladi. So'ng talaba tayyorlanagan kompozitsiyani buyumga axta yordamida tushiriladi. Amaliy ish jarayoni dastlab zaminga, so'ng naqsh kompozitsiyasi unsurlari gul, barg, novdalarga badiiy ishlov berish, o'yish bajariladi. Shu narsaga amin bo'ldimki, metodik ketma-ketlikda ishlash, ishni sifatli bajarilishiga olib keldi. Ishning so'ngi bosqichida kompozitsiyaning sifat jihatidan yuqori malakada bajarilishida o'yish texnologiyasi asosiy vazifa ekanligini angladim. Guruhdagi talabalarning saviyasini birma-bir ko'zdan kechirdim. Ayrim talabalar ishni har tomonlama mukammal bajargan. Ba'zilari esa ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yganlar.

3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili.

Men pedagogik amaliyot davrida 2-kurs talabalarining 3-semestrda­gi ishlarini kuzatdim va 4-semestrda­gi ko'rsatgichlar bilan tahlil qildim. Natijada quyidagi dalillar aniqlandi. 2-kurs badiiy yog'och o'ymakorligi yo'nalishi talabalarining 3-semestrda­gi Kompozitsiya fanidan ishlarini foizlarda quyidagicha taqsimladik.

1-vazifa. Kompozitsiya ishlanmasi:

Kompozitsiya chizish - 86,4 %

O'yish ishlarini bajarish - 83,7 %

Pardoz ishlarini bajarish - 75,9 %

2-vazifa. Kompozitsiya ishlanmasi:

Kompozitsiya chizish - 87,5 %

O'yish ishlarini bajarish - 85,2 %

Pardoz ishlarini bajarish - 77,3 %

3-vazifa. Kompozitsiya ishlanmasi:

Kompozitsiya chizish - 90,1 %

O'yish ishlarini bajarish - 87,4 %

Pardoz ishlarini bajarish - 80,2 %

O'tgan semestr davomida kollej o'quvchilarining o'sish sur'ati quyidagicha bo'ldi. 2-kurs badiiy yog'och o'ymakorligi yo'nalishi talabalarining 4-semestrda­gi Kompozitsiya mashg'ulotlarida o'sish sezilarlidir.

1-vazifa. Kompozitsiya ishlanmasi:

Kompozitsiya chizish - 93,6%

O'yish ishlarini bajarish - 91,4 %

Pardoz ishlarini bajarish - 85,6 %

2-vazifa. Kompozitsiya ishlanmasi:

Kompozitsiya chizish - 94,4%

O'yish ishlarini bajarish - 92,6 %

Pardoz ishlarini bajarish - 86,4 %

3-vazifa. Kompozitsiya ishlanmasi:

Kompozitsiya chizish - 96,6%

O'yish ishlarini bajarish - 94,5 %

Pardoz ishlarini bajarish - 88,2 %


Badiiy yog'och o'ymakorligi yo'nalishi ikkinchi kurs talabalarining bajargan amaliy ishlarini kuzatib shunday xulosaga keldimki, fan o'qituvchisining bevosita talabalar bilan ijodiy hamkorligi yaxshi natijalar berar ekan. Faqatgina dars jarayonida emas, balki talaba doimo o'z ustida mustaqil ish olib borishi, uni ulkan yutuqqa erishishiga olib keladi.

Atamalariga oid izohli lug'at

Barcha san'at turlari kabi naqqoshliq ganch va yog'och o'ymakorligi san'atlari uz tarixiga va uziga xos nomlarga ega bo'lib, xanuzgacha ushbu soxalar buyicha atamalarning b pro rta ham izoxli lug'ati yaratilmagan. Ayniksa, xozirgi vaktida izoxli lug'atlarga bo'lgan extiyoj nixoyatda oshib bormoqda. Yoshlar san'at sirlarini urganayotganda juda ko'p tushunchalarga va atamalarga duch keladilarki (masalan, madoxil, turunj, minkor, kandil, ruta, izora, morpech, tanob va boshkalar), ularning ma'no va mazmunini istalgan vaktida tegishli adabiyotlardan topish amrimaxol. Bundan tashkari Uzbekistonning turli shaharlarida ayrim atamalar uzlarining maxalliy shevalarida har xil ifodalanadi. Masalan: ganchni Toshkentda ganch deb yuritilsa, Margilonda bur deb, axtani esa Xorazmda ulgi deyilsa, Toshkentda axta deb yuritiladi

ANDAZA - (fors, tojikcha - ulchov, son, xajm, mikdor, trafaret, ruscha - merka, shablon) - shakl kuchirish uchun qo'llaniladigan (qog'oz, karton, faner, po'lat, tunuka va xokazolardan tayyorlangan) maxsus ulchagich. Kukonda ulchak va iskat deb ham ataydilar. Tunukasoqlikda va misgarlikda taxta, tunuka yoki misning bir qismini buyum yasash uchun kesib olish maqsadida ustiga andazani qo'yib chizib olish - andazalash deyiladi.

Temirchilikda andaza ketmonning zugati yoki tanasini kirkib olish uchun yasalgan ulchak. Metallsoqlikda andazani shablon deb yuritiladi. Kashtachilikda qog'oz yoki kartondan chizilgan rasmni naqshga muvofik kirkib tayyorlangan gulni Ham andaza deyiladi. Ganch o'ymakorligida, me'morchilikda binolarni bezashda rozetka, ustun, qandil, gipsli ramka va boshqalarni yasashda ishlatiladi. Bunda yig'ma andaza, osma andaza, yarim andaza, tebranuvchi andaza va boshkalardan foydalaniladi. Bu andazalar po'lat, tunuka, yog'och, faner va boshkalardan yasaladi.




1-rasm. Anor guli Namoyon

O'simliksimon naqsh elementi. Naqqoshlik, kulolchilik misgarlik, gilamduzlik, kashtachilik, zarduzlik va boshkalarda juda ko'p ishlatiladi. Anor elementi qadimdan ishlatilib kelinganligi sababli u tukchilik va tukin-sochinlik ramzi sifatida qullanilgan.

ANOR GUL - anor elementidan tashkil topgan islamiy naqsh kompozitsiyasi. Anorgul qadimdan ishlatilib kelina-yotgan naqsh bo'lib, Fargona naqshlarida ko'p uchraydi. Anorgul ikki xil: tabiiy, ya'ni tabiatda kanda bulsa, shunday yoki stillashtirilgan uslubda tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko'pincha ichki qismi ham kursatiladi. Anorgul naqshi kulolchilikda, misgar-likda, kashtachilikda, tuqimachilikda, naqqoshlikda juda ko'p ishlatiladi (1-rasm).

APPLIKATSIYA - kog'oz, gazlama, karton va boshka materiallarga rang-ba rang material yoki kogda parchalarini yopishtirish orkali naqsh yoki badiiy tasvir yaratish.

ASOSIY RANG - tabiatdagi sariq, qizil, zangori ranglar. Shu ranglarni bir-biriga ozmi-ko'pmi ara-lashtirish natijasida boshqa ikkinchi dara jali ranglar kelib chiqadi.



2 - rasm. Axta.

AXROMATIK RANG - grekcha rangsiz degan ma'noni bil-dirib, ular bir-biridan yutadigan yoki tarkatadigan yoruglik kuchi bilan farq kiladi. Ularga oq, kora va kulrang-ranglar kiradi.

AXTA - naqsh yoki biror rasmni shaffof (kalka) qog'ozga chizib, chiziq yullarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andaza. Xorazmda uni u lgi, Buxoroda

suzan deb yuritadilar. Ilk g'davlarda ustalar sirtga to'g'ridan-to'g'ri chizib,

o'yib ketganlar, keyinchalik axta orkali tasvirni tushirish kulayligini bilib foydalanib kelganlar. Naqqoshlar, ganchkorlar, yog'och o'ymakorlar va boshkalar naqsh kompozitsiyalarining eskizini yillar da vo m id a saklab kelganlar. Ular xoxlagan vaqtda ulardan ijodiy foyda-lanib takomillashtirganlar. Bu axtalar hattoki

otadan-bolaga meros bo'lib qolgan. Ustalar axtani maxsus san-diklarda saklab kelganlar. Xozir esa davlat arxivlarida saklanib kelinmoqda. Masalan, mash^ur ganchkorlar Usta Shirin My rodov, Toshpo'lat Arslonqulov, naqqoshlar T. Tuxtaxujayev, Jalil Xakimov va boshkalar tayyorlagan axtalar arxivlarda saklanmokda. Axtani tayyorlash uchun shaffof (xitoy) qog'ozga naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya uqi buyicha qog'ozni ikkiga, turtga va hokazoga buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qog'ozni yupqa yostiqla ustiga qo'yib naqsh chiziklari ustidan igna bilan teshib chikiladi. Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Igna teshigi oraligi naqshning manda va yirikligiga bogliq. Agar naqsh mayda bulsa, igna oraligidagi masofa yaqin bo'ladi. Naqsh nusxasini igna bilan teshib bulingandan keyin, shaffof kog'oz yoyib yuboriladi, na-tijada axta hosil bo'ladi. Tayyor bo'lgan axtani ish yuzasiga qo'yib, ustidan xoka urib va bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi ish yuzasiga kuchiriladi va hokazo (2-rasm).

BALIQ SIRTI ISKANA - yog'och o'ymakorlik asbobi bo'lib, tagi botiq, kamalaksimon ko'tarilgan, baliq qovurg'asi shaklida bo'lgan asbobdir. Keskichning eni 4 mm dan 19 mm gacha bo'lib (katta-kichikligiga qarab) kichiq, o'rta va katta baliq sirti iskanalar bo'ladi.



3 - rasm. Band


BAND - (novda) o'simlik bandi. Islimiy naqsh elementi bo'lib, u gullarning novdasi hisoblanadi. Band tabiat-dagi daraxt yoki o'simlik novdasining stillashtirib olingan tasviridir. Har bir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qullanishining uziga xos qoidalari bor. Masalan: bandning aniq bir ulchamda bulishi, uning kompozitsiyada barglar, gullarga nisbatan joylanishi, naqshda gullar, barglar va tanoblarning tagidan utishi va xokazo. Turli shaharlarda nakqoshlar

banddan kompozitsiyada uziga xos foydalanadilar, shuning uchun ham naqshlar bir-biridan farq qiladi. Chunonchi Xorazm naqshida bandlar kam kurtakli, ba'zan deyarli kurtaksiz, novdalarning uzi prujina singari bir-biriga tuqilib ketadi. Buxoro, Toshkent va Samarkand nusxalarida ko'pincha shukufta ajratilmay, shukufta urniga novdacha qushilib ketadi va xokazo (3-rasm).

BARG – o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, nakdoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik barglarini umumlashtirib olingan tasviri. Barglarning quyidagi turlari bor: shobarg (shox barg), o'simliksimon naqsh elementlaridan biri bo'lib, barglar ichida eng kattasi hisoblanadi. "Qushbarg" ikki bargdan iborat bo'lgan o'simliksimon naqsh elementi, "ko'pbarg" bir necha barglardan tashkil topgan o'simliksimon naqsh elementi, (chor barg) turt bargdan iborat bo'lgan naqsh elementi, (xurmo bargi) xurmo daraxti bargining naqshlar tomonidan umumlashtirib olingan tasviri, tol bargi, anor barg, qashqarcha barg, madoxil barg, qushbodom barg, kalampir barg, nok barg, sambit barg, butoq barg va boshqa turlari bor.



4 - расм. Барг.



5-расм. Бодом.


Barg naqsh kompozitsiyada to'ldiruvchi va xusn beruvchi element bo'lib. tuzilishiga kura oddiy va murakkabga bulinadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshkalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'pbarg, shoxbarg va boshkalar kiradi (4-rasm).

BODOM – tabiatdan stillashtirib tasvirlangan islamiy naqsh turi. U zargarlik buyumlari, naqsh buyumlari, duppilar, matolar, yog'och o'ymakorligi, zarduzlik va boshka xalq amaliy bezak san'ati turlarida keng ishlatiladi. Kadimda otabobolarimiz bu naqsh tu-rini an'ana tarikasida baxt ikbol ramzi sifatida ishlatib kelganlar (5-rasm).

BOFTA – islamiy naqsh elementi. Tanob aylanib utib, kosil qnlingan jozibali shakl. Uning to'g'ri, egri eki a rala sh chizikli turlari bo'ladi (6-rasm).

BOSHA - ruscha kopitel, ustun tepasidagi bezakli kiem. U ganch, yog'och, beton va boshka materialdan yasalishi mumkiii.

BO'YOQ – yupqa qatlami qurigandan sung shaffof bulmagan, sirtni emiruvchi moddalardan saklaydigan va unga chiroyli tashqi kurinish beradigan parda xosil qiladigan modda. Moyli bo'yoqlar, guash, akvarel, tempera va boshka bo'yoq turlari mavjud. Bo'yoqlar qog'oz, karton, tunuka, gazmol, yog'och . va boshka materialli buyumlarni buyash uchun ishlatiladi. Har bir bo'yoq turi uziga xos xususiyatga va ishlatish texnologiyasiga ega. Bo'yoqlardan bo'yoqchilikda, tex-nikada, xalq amaliy san'atining ko'pgina turlarida keng foydalaniladi.



6 - rasm. Bofta.

VASSA - toqi, shiftni yopishda bolor (tusin)lar ustidan teriladigan yarim doirali gulachalar bo'lib, uni ko'pincha naqqoshlar sidirga rangda buyaydilar yoki ajoyib naqsh shakllari bilan bezaydilar. Ularga ishlangan gullar xo-naning kurkiga kurk qushadi. Vassa qadimda an'ana tariqasida ishlab kelingan.

U Tojikiston va Uzbekiston binolarida juda ko'p ishlatilgan. Inqilobdan keyin vassa juda kam ishlatilgan.

Xozir zamonaviy choyxona va boshka joylardagi binolar; ishlatilyagghi. Vassa ni ustalar asosan tol yog'ochidan Tai yorlaydilar. Chunki tol yog'och ko'p bo'lgan. U yorilib ketmasligi, sillikligi va boshka xususiyatlari bilan aj-ralib turadi.

GAZ CHUP - ganchkorning yoki suvokchining tekis suvokla ishlatiladigan maxsus yog'ochi.

GANCH - gipsning max,alliy nomi, uning rangi oq yoki sargish oq bo'ladi. Ruscha gips, Kavkazda "gaja", forsha "gaj", tojikcha "ganch", turkcha "urunak", uzbekcha "ganch" deb yuritiladi. Ganch gips bilan tuprokning tabiiy ara-lashmasi bo'lib, uning tarkibida 40-70% gacha gips bo'ladi. Ikki xil: tabiiy va sun'iy ganch bo'ladi. Tabiiy ganch katta harsang tosh xolida bo'lib, undan to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yunib, tirnab qurilishda ustun, xaykallar va bezak sifatida foydalaniladi. Sun'iy ganchlar esa harsang tosh-larni pechlarda kizdirib, keyin uni maydalab tayyorlanadi. Maydalangan ganchlarni galvir va elakdan utkazib, sifatiga karab navlarga ajratiladi. Eng mayda va toza ganch kukunini gulganch (gul uyish uchun va har xil pardoz ishlarini bajarishda ishlatiladi) deb yuritiladi. Nisbatan yirikroq kukunlisini esa tez ganch (gulganchning ta giga, suvoq ishlarida, gisht terishda va boshqa joylarda ishlatiladi) deb ataladi.

Qadimda ustalar pechlarda harsang ganchlarni 6-7 soat 120-150 daraja issikda qizdirib, keyin esa, asta-sekin sovitganlar. Ganch toshlarni qizdirish natijasida uning nami kamaygan sari mustahkamligi oshgan. Shu harsang ganchlarni maxsus bolgalarda maydalaganlar. Ganch tayyor-laydigan ustalarni il gari ganchkoplar deb yuritganlar. Ganch o'ymakorligi bilan shugullangan ustalar ganchkorlar deyilgan.

Ganchning qadimdan ishlatilib kelinishining sababi, ganch uzidan sovuqni va issikni juda kam utkazadi, chunonchi xom gishtdan ikki marta, pishiq gashtdaya yarim marta kam utkazadi. Bu xususiyatlarini bilgan xalq ustalari uylarni devor, shift, hattoki polini ham ganch bilan suvaganlar. Ganchning fizik-mexanik xususiyati yaxshi bo'lganligi uchun uni me'morchilikda sement urnida va engilligi bilan gumbaz, nozik gisht terish, har xil o'ymali ko'ymalar tayyorlashda ishlatilgan.



Ganch namgarchilikni kam utkazadi va akustiklik xususiyatiga ega. Ganch betonga qaraganda 38-40% engil bo'lganligi uchun maxsus binolarni kurishda keng ishlatiladi. Ganch kotgandan sung torayish urniga kengayadi, bu esa yog'och konstruksiyalarni yanada mustaxkam boglab turadi. Ganch yukori bosimga, yorilishga chidamli va plastik xususiyatga ega. Tez yopishib kolishi, devor va shiftni sidirga suvashda, shakllar tayyorlash, o'yib naqsh, tasvir ishlashda kulay bo'lib, namga chidamsizligi uchun bino tashkarisiga kam ishlatiladi. Ganchga mineral bo'yoqlar qo'shib, rangli ganchlar tayyorlanadi. Mineral bo'yoq nisbati 1:10 dan oshmasligi keraq aks xalda uning kuvvati kamayib ketadi. Arxeolog olimlar kadimiy arxitektura yodgorliklaridan topilgan gisht va ganch koldiklarini tekshirib kadimgi ustalar ko'p yillik buta va o'simliklarning ildizidan tayyorlangan shirachni ganchga qo'shib ishlatganliklarini aniklaganlar. Ganchni sekin kotishi uchun unga suv qushilgan. Lekin bunda ganchning kuvvati pasaygan. Shirach ganchning sekin kotishini, kotgandan sung esa toshday kat-giq bo'lib kolishini ta'minlagan. Shirach qushilgan ganchning mustahkamligi 0,5–45 foizgacha oshgan. Dozir Samarkand ganch o'ymakor ustalari ayrimlari ganchga shirach qushib ishlatyaptilar. Shirach tayyorlash texnologiyasini ko'p ustalar bilmaydilar.

Binolarning detallari, ustun, haykalchalar, sharafa, muqarnas, xajmli ornamentlar va boshqa narsalarni qo'yima usulda tayyorlashda sut, kamedi, kazein va boshka narsalar sushganlar. Bular esa ganchning quvvatini oshirgan. Xattoki Hammomlarning ichki k ismini ganch bilan suvaganlar. Bu ganch qorishmani "kir" qorishmasi deb yuritganlar. "Kir" tayyorlash quyidagicha bo'ladi:

Bir chelak ohaq bir chelak qum, kumir kukuni hamda har xil kamish kulini qushganlar. Bu qorishmani olovga qo'yib, 10-12 soatlab aylantirib pishitib, keyin esa suv turadigan hovuzlarni suvaganlar. Uning kichik yoriklarini yuqotish uchun sut bilan korilgan ganch bilan suvaganlar. Bunda y suvoklar juda namgarchilikka uzoq chidagan. Binolarga g'isht terishda va suvoq ishlarida ganchxok ishlatilgan. Bunda bir chelak alebastr yoki tezganch, bir chelak qum va bir chelak soz tuprokni elamasdan obdon aralashtirilgan. Xolvaytar xolatida aralashtirib kerakli yuzaga kaftda chapib surtiladi. Bu suvashni ganchkor ustalar "kapganch" deb ataydilar. Ganchxok rangi koramtir tusda bo'ladi. Avvalgi ustalar ishdan chiqqan ganchlarni tashlab yubormasdan, ganchni kayta ishlar edilar, ya'ni ganchni krzonga solib sizdirganlar, Ganchni kayta ishlash natijasida ganch oldingi quvvatiga kelgan.

GANCHKOR - ganch (alebastr, gips) o'ymakor usta. Mashhur ganchkorlardan Usta Shirin Murodov, Toshpo'lat Arslonqulov, Quli Jalilov, Shamsiddin Gofurov, Usmon Ikromov, Maxmud Usmonov, Ziyodilla Yusupov, Umar Toxirov va boshkalar misol bula oladi.

GANCHKORLIK– amaliy bezak san'atining keng tarkalgan qadimiy turi. O'rta Osiyoda I asrdan ganchga o'yib naqsh ishlangan. Uni Xorazmdagi Tuproqqal'a, Buxoro hukmdorlari saroylari va joylardagi arxeologik kazishlar jarayonida ganchkorlik san'ati namunalari topilgan. XVII-XIX asrlarda ganchkorlik san'atidan turar joy binolariga bezak berishda keng foydalanilgan. Ganchkorlik naqshlar ko'pincha binoning ichkari qismida ishlatilib, devor sharafa, tokcha, shift, izora va boshqa joylar bezaladi. Ganchkorlik rivojlanib borishi bilan har bir vohada, ya'ni Xiva, Toshkent, Buxoro, Farg'ona va boshqa ganchkorlik maktablari paydo bo'ldi. O'yima ganch naqshlarni tosh oyna, oddiy oyna ustiga ham qo'yib, suvab o'yiladi. Ko'pincha o'yima zaminlar har turli bo'yoqlar bilan bo'yaladi. O'yilgan relefga asosan 4 xil pardoz beriladi, ya'ni pax, choka, lo'la va tabaqa pardozlardir. Bulardan tashqari ganch o'ymakorligida chizma va qirma pardozlar ham bor. Hozir ganch o'ymakorlik san'ati jamoatchilik binolari, turarjoy va boshqalarni bezashda keng qo'llaniladi.



XULOSA

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha kompozitsiya mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va o'tkazish metodik asoslarini ishlab chikish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri xisoblanib, kelajak yosh avlodga o'zbek milliy san'atimizni o'rgatishda axamiyati beqiyosdir. Men bitiruv malakaviy ishining mavzusi sifatida kompozitsiya fani bo'yicha kasb-hunar kollejlariida mazkur fanni o'qitishning amaliy asoslarini tanladim. Buning uchun, buyumlarga ishlov berish metodikasini tahlil qildim. Bevosita amaliy san'at ustaxonalarida bo'lib, yurtimizning etuk ustalarining ijodiy faoliyatini kuzatdim.

Shundan so'ng bitiruv malakaviy ishida milliylikni aks ettirish maqsadida yuqoridagi shakllarni tanladim. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qildim:

- O'zbekistonda amaliy san'atni rivojlanish tarixi to'g'risida ma'lumot;
- O'zbekistondagi amaliy san'at maktablari, ijodkor ustalari va ularning hayotiy faoliyati bilan tanishish, ijodiy uslublarini o'rganish;
- Amaliy san'atda kompozitsiya tuzishdagi asosiy qonuniyatlarni o'rganish;
- Amaliy san'at buyumlariga naqsh kompozitsiyasi tuzish, o'yish va pardoqlashning metodik asoslarini tahlil qilish.
- Bitiruv malakaviy ishining amalga oshirishda guruhimiz bilan pedagogik amaliyot o'tagan Uchtepa tumani milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejining kompozitsiya darslarini tahlil qildim.

Amaliy san'at ta'lim davlat standartlarini o'rgandim, amaliy san'at mashg'ulotlarida buyumga ishlov berish mashg'ulotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlashga xarakterat qildim.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy xalq amaliy san'atini chuqur o'rgangan holda, ularni yoshlarga o'rgatish kabi muhim vazifalarni bitiruv malakaviy ishida imkon qadar yoritishga xarakterat qildim. Bitiruv malakaviy ishini yozishda yordam bergan barcha murabbiylarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovard maqsadimiz.- T.:O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.T.: O‘zbekiston, 2000.
3. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Akilova K. B. Narodnoe dekorativno- prikladnoe iskusstvo Uzbekistana XX vek. Tashkent. 2005 god.
5. Azimov I. O‘zbekiston naqshu-nigoralari. –T. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987.
6. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy be’zak san’ati. Toshkent.1991 yil.
7. S.S.Bulatov, P.P. SHabaratov. Muallimlar inistitullari badiiy- grafika fakultetining o‘qituvchilari uchun miniatyura san’ati fanidan dastur. Toshkent. 1995 yil.
8. Bulatov S.S., SHabaratov P.P. Rasulov M.A. “Naqqoshlik” “Iqtisod-Moliya” – 2010. (KHKLari uchun o‘quv qo‘llanma).
9. S.S.Bulatov, P.P. SHabaratov N. A. Mansurov. “Naqqoshlik” “Fan va texnologiya” – 2010. (Metodik qo‘llanma).
10. Bulatov S.S., Muxtorov A. Ganchkorlik san'ati. –T.: «Musiqqa», 2006.
11. Bulatov S.S. Ganchkorlik va naqqoshlik, yog’och o’ymakorligi atamalari izohli lug’ati. –T.: «Mehnat», 1991.
12. Bulatov S.S. Ganchkorlik .- Toshkent: «O’qituvchi», 1997.
13. Buyuk siymolar, allomalar. T.:Meros (uch kitob), 1995, 1996, 1998.
14. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. T.: Mehnat, 1992.
15. Ibrohimov N. Ibn Batutta va uning O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohati.-T., 1991.
16. Ipak yo‘li afsonalari.- T.: Fan, 1993.
17. Ishoqov M. va b. Qadimgi yozma yodgorliklar. T.: YOzuvchi, 2000.
18. Yo‘ldoshev N. Bahovuddin Naqshband - Buxoro, 1993.
19. Kamarov A. Texnologiya materialov stenopisi Moskva 1989 yil. Kabirov O‘qituvchi, 1990.

20. Maqkam Asqar. Avesto. "SHarq". T.: 2001.
21. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. -T.: CHO'lpon, 1994.
22. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. -T.: «Iqtisod–moliya», 2007.

ILOVALAR

1-ilova.

Amaliy san'atga oid terminlarning o'zbekcha va inglizcha lug'ati

amaliy sanat – fine art	tasvir – draw
naqqoshlik – carving	kulolchilik – ceramic
memorchilik – corving	arxeologik qazilma –
archeological minera	element – element
madanyat – culture	yodgorlik – memorial,
kupsam	
geometric –geometric	arxitektura – architekto
motiv – motive	o'simliksimon – founo
shakil – forum	shakl – form
kompazitsiya – compazition	rasm –picture
zamonaviy – modern	manzara – scene
texnologiya – texnology	majmua – comple
kampyuter grafikasi – computer graphics	madrasa – madrasa
xalq ustasi – population master	maqbara – mausoleum
chizgich – ruler masjid – masque	sirkul – circuler
xunarmand – handi raftsman	peshtoq – porc

«Tasdiqlayman»

Uchtepa tumani Milliy hunarmandchilik
kolleji o‘quv ishlari bo‘yicha direktor
muovini _____N.Murodova

« » aprel 2014yil

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Mavzu: Quticha yuzasiga naqsh kompozitsiyasi tuzish
bosqichlari

Maxsus fan o‘qituvchisi: F.Raximova va amaliyotchi talabalar
S. Salimova, A.Maxmudova, Yu.Kurbanova.

Toshkent – 2014 yil

DARS REJASI

O'tish sanasi: 23.04.2014

Fanning nomi: LOYIHALASH

Mavzu: Quticha yuzasiga naqsh kompozitsiyasi tuzish.

Darsning ta'limiy maqsadi: Quticha yuzasining o'lchamini olish, unga naqsh kompozitsiyasini qonun qoidalar asosida chizishga o'rgatish. Kompozitsiya tuzish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish. Etika, estetik jixattan tarbiyalash. Naqqoshlikda pardoz turlari, ularni ranglash texnologiyalari, naqqoshlikda asbob-uskunalardan foydalanishni o'rgatish. Naqsh chizish, naqsh kompozitsiyasini komponovkalash, ularga soya berishni o'rgatish. Naqqoshlik darslarida «Ustoz va shogird an'analari»dan unumli foydalanish. Pardoz turlarini bir-biridan farqi va kompozitsiyaning naqshiga qarab, pardoqlashni o'rgatish. Naqqoshlik san'atida ustalar ishlaridan namunalar ko'rsatish orqali pardoz turlari:

Targ'il, edirma pardozlar haqida ma'lumot berish. Ustalarning ishlarida qaysi pardoz turlaridan keng foydalanilgani haqida ma'lumot berish. Pardoz turlarini ko'rgazmali qurollar orqali tushuntirish, naqqoshlik maktablarida qanday pardoz turlaridan foydalanishlari haqida ma'lumot berish. Hozirgi kunda naqqoshlik san'atiga bo'lgan e'tibor va hurmat haqida fikr almashish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash malakalarini shakllantirish. Ustoz va shogird an'analari orqali o'quvchilarda ustozga hurmat, shogird vazifalari, odobi va fazilatlarini shakllantirish. Buyuk naqqosh ustalar ijodini o'rganish orqali naqsh namunalarini tuzish, ularni ranglash va pardoz turlari haqida kengroq ma'lumot berish, ular ijodiga qiziqish uyg'otish, ajdodlarimiz merosini o'rganishga qiziqishni yanada oshirish. Naqsh namunalarini tuzish, ularni ranglash va pardoz turlari va naqsh namunalarini to'g'ri tanlashga o'rgatish, o'quvchilarda o'z kasblariga qiziqishlarini yanada oshirish. Naqsh

namunalari tuzish, ularni ranglash va pardoqlash orqali o'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'qitishning zamonaviy usullari orqali o'quvchilarni mustaqil ishlash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Test, Sayoxat, Klaster, BBB, usulini O'quvchilar guruhlariga bo'linib naqqoshlik va uning maktablari, namoyandalari, naqsh turlari, kompozitsiya tuzish usullari va ularni pardoqlash yo'llarini dars davomida tushuntirib beriladi. Buning uchun biz yangi uslubdan foydalanamiz.

Dars o'tkazish joyi: Kompozitsiya ustaxonasi

Dars turi: Noan'anaviy (ma'ruza, amaliy)

Dars uchun ajratilgan vaqt: 2 soat

Darsni jihozlash: Ko'rgazmali vositalar, texnik vositalar.

Tashkiliy qism: 5 daqiqa

Salomlashish, o'quvchilarni yo'qlama qilish, navbatchini aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish

Darsni mustahkamlash: Test

Uyga vazifa: Pardoq turlari

O'qituvchi: F.Raximova va amaliyotchi talabalar S. Salimova, A.Maxmudova, Yu.Kurbanova.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar	Ajratilgan vaqt	Mashg'ulot mazmuni	Metod
Tashkiliy	5	Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.	
O'tilgan mavzuni mustahkamlash	15	Naqsh va uning turlari mavzusi bo'yicha test savol-javobi o'tkazish va baholash	
Yangi mavzun bayoni	45	Quticha yuzasiga naqsh kompozitsiyasi tuzish, ranglash va pardoqlash. Klaster (Ranglash bosqichlari)	
Yangi mavzuni mustahkamlash	10	Sayoxat usulidan foydalanib yangi mavzuni mustahkamlash.	

Darsni yakunlash	5	BBB usulidan foydalanib darsni yakunlash, uyga vazifani tushuntirib, baholarni e'lon qilish.	
------------------	---	--	--

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. I.Azimov. O'zbekiston naqshu nigorlari. Toshkent G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1987 yil
2. S.Bulatov. O'zbek xalq Amaliy bezak san'ati. Toshkent 1997 yil
3. N.Qayumov. Ashyolarga badiiy ishlov berish. Toshkent 2011 yil
4. N.Qayumov. Loyihalash. Toshkent Sharq 2007 yil
5. S.Bulatov, N.Tolipov, R.Jabborov. Amaliy san'at lug'ati 2009 yil

2-ilova. Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid rasmlar

